



“TASDIQLAYMAN”

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
direktor o‘rinbosari X.I.Turdibekov
27-oktabr 2025 yil

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialida
“Talaba ma’naviyat fidoiysi” ko‘rik-tanlovini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida
NIZOMI

I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialida “Talaba ma’naviyat fidoiysi” ko‘rik-tanlovini o‘tkazish tartibini belgilaydi.
2. Tanlov O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar siyosati sohasidagi farmon va qarorlariga, “Ma’naviyat va ma’rifat” konsepsiyasiga hamda filialning yillik ma’naviy-ma’rifiy ishlar rejasiga muvofiq tashkil etiladi.
3. Tanlov talabalarning ma’naviy yetukligini, ijtimoiy faolligini va ibratliligini namoyon etishga qaratiladi.

II. Tanlovni o‘tkazish tartibi

1. Tanlov 2 bosqichda o‘tkaziladi:

1-bosqich (fakultet bosqichi) — fakultetlar, kafedralar yoki talabalar guruhlar doirasida o‘tkaziladi;

2-bosqich (final bosqichi) — filial miqyosida yakuniy bosqich tarzida o‘tkaziladi.

2. Tanlov quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha tashkil etiladi:

“Men – ma’naviyat fidoyisiman” (talabaning shaxsiy taqdimoti va dunyoqarashi);

“Ijod va tashabbus” (she’r, insho, sahna ko‘rinishi yoki taqdimot orqali ma’naviyatni targ‘ib etish);

“Ma’naviyat sinovi” (savol-javob, test yoki ma’naviy-axloqiy bilimlarni sinovdan o‘tkazish).

III. Ishtirokchilar uchun talablar

1. Tanlovda filialning barcha yo‘nalish va kurs talabalari ishtirok etish huquqiga ega.
2. Ishtirokchi quyidagi talablarga javob berishi lozim:
namunali xulq-atvor egasi bo‘lishi;
ijtimoiy va jamoatchilik ishlarida faol bo‘lishi;
ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda ishtirok etgan bo‘lishi;
milliy qadriyatlarga hurmat bilan qarashi.

IV. Baholash mezonlari

1. Ishtirokchilar quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

ma'naviy yetuklik, axloqiy fazilatlar — 25 ball;

ijtimoiy faollik va tashabbuskorlik — 25 ball;

ijodiy chiqishlar sifati va mazmuni — 25 ball;

nutq madaniyati va taqdimot uslubi — 25 ball. Jami: 100 ball

V. G'oliblarni taqdirlash tartibi

1. Eng yuqori ball to'plagan ishtirokchi "Talaba ma'naviyat fidoiysi" unvoni bilan taqdirlanadi.

2. G'oliblarga Faxriy yorliq, esdalik sovg'asi va sertifikat topshiriladi.

3. Tanlov natijalari filialning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlarida e'lon qilinadi.

VI. Yakuniy qoidalar

1. Tanlov tashkilotchilari — Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali Ma'naviyat va ma'rifat bo'limi, Filial Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti, fakultet dekanlari hisoblanadi.

2. Ushbu Nizomga o'zgartish va qo'shimchalar tanlovni tashkil etuvchi ishchi guruh tomonidan kiritilishi mumkin.